

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**Sharof Rashidov nomidagi**

**Samarqand davlat universiteti**

**rektori**

**R.I.Xalmuradov**

**2023-yil**

**08.00.05 – XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARI IQTISODIYOTI  
IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH  
SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

**Samarqand – 2023**

### **Annotatsiya:**

Dastur 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligiga kiruvchilar uchun “Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyoti”, “Buxgalteriya hisobi”, “Turizm: nazariya va amaliyot”, “Iqtisodiy tahlil va audit” va “Moliya va soliqlar” fanlari asosida tuzildi.

### **TUZUVCHILAR:**

Bakayev Z.T.	-	SamDU, Raqamli iqtisodiyot kafedrasи mudiri, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Rahmonov T.	-	SamDU, Raqamli iqtisodiyot kafedrasи dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.
Safarov B.Sh.	-	SamDU, Raqamli iqtisodiyot kafedrasи professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Dastur Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish institutining 2023-yil 29-sentabrdagi № 2-sonli Institut Ilmiy Kengashi yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasiga ehtiyoj kundan-kunga, oydan-oyga va yildan-yilga oshib bormoqda. Chunki bunga ob'ektiv sharoit yaratilmoqda. Birinchidan, aholining daromadlari ko'payib, yashash sifatining ortib borayotganligi ko'pgina yangi-yangi xizmatlarni talab qilsa, ikkinchidan ishlab chiqarishning takomillashayotganligi ham ushbu sohaning jadal rivojlanishini talab qiladi. Xizmat ko'rsatish yetarli bo'lmagan joyda yuqori samaradorlikka erishish ham bir muncha qiyin. Shu tufayli ushbu soha eng tez rivojlanishini talab qiladigan sohalardan biri bo'lib qolmog'i lozim.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish va servis sohasining millmy iqtisodiyotdag'i o'rni va roli yildan-yilga oshib bormoqda. Buni ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushining ortib borayotganligida ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va sifatini ko'tarish bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar hali talaygina. Birinchidan, ushbu sohada xo'jalik yurishining bozor munosabatlariga asoslangan yangi sharoitlarga moslashish jarayoni takomillashishni talab qilsa, ikkinchidan, uni kompleks rivojlantirish bilan bog'liq ko'pgina muammolar ham o'z yechimini kutmoqda. Uchinchidan, hayot shiddat bilan o'zgarib bormoqdaki, ular xizmatlarning yangi-yangi turlarini joriy qilishni taqozo qiladi. Bularning barchasi mazkur sohada fundamental tadqiqotlarni olib borish bilan birga mutaxassislarni tayyorlashda o'quv adabiyotlariga ham kiritib, mukammal o'qitish zaruratini ham tug'diradi.

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligining vazifasi xizmat ko'rsatish faoliyatining iqtisodiy mohiyati, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni, xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining maqsadlari, xizmat ko'rsatish faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlarining asosiy fondlari, aylanma mablag'lari, xizmat ko'rsatish korxonalarida marketing xizmatlarini rejalshtirish, xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari mehnatiga haq to'lash, xizmat ko'rsatish sohasida investitsiya jarayonlari, ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, xizmat ko'rsatish sohasi korxona va tashkilotlarining daromadlari va rentabellik darajasi kabi masalalarni o'rganishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, o'simliklar ximoyasi va entomologik jaraenlarga uslubiy endashuv xamda ilmiy duneqarashini shakllantirish vazifalarini bajarad Bunda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni oshirish va ko'nikma xosil qilishdan iboratdir.

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlar uchun "Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti", "Buxgalteriya hisobi", "Turizm: nazariya va amaliyot", "Iqtisodiy tahlil va audit" va "Moliya va soliqlar" fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida bat afsil keltirilgan.

## **XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI IQTISODIYOTI**

### **fani bo‘yicha:**

Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyoti fanining nazariy masalalari. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. Xizmat ko‘rsatish sohasin rivojlantirishning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari. Xizmat ko‘rsatish sohasini ravojlanti-rishning konseptual yo‘nalishlari va ularning kengaytirilgan ishlab chiqarish tizimidagi o‘rni. Xizmat ko‘rsatish sohasida modernizatsiyalash, va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish yo‘llari. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyaning mohiyati va turlarining nazariy masalalari. Xizmat ko‘rsatish sohasida samaradorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi va aniqlanish yo‘llari. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida. Sinergetik samara va undan foydalanish imkoniyatlari. Xizmat ko‘rsatish sohasida klaster usulidan foydalanish imkoniyatlari. Xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat va biznes muhiti, ularning sohani rivojlantirishdagi ahamiyati. Aholiga ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar, ularning turlari, mohiyati va hisobga olish yo‘llari. Aholiga ko‘rsatiladigan uy-joy, kommunal va maishiy xizmatlar, ularni hisobga olish tartiblari. Yo‘lovchi tashish transporti xizmatlari, ularning ahamiyati, turlari va hisobga olish yo‘llari. Aloqa, axborotlashtirish va ta’lim tizimi xizmatlari mazmuni hamda ularni hisobga olish yo‘llari. Madaniy, mayishiy va sayyohlik-ekskursiya xizmatlari turlari, ularning mazmuni va hisobga olish yo‘llari. Sog‘liqni saqlash (tibbiy), sanatoriya-kurort, sog‘lomlashtirish, jismoniy madaniyat va sport xizmatlari xizmatlarining turlari, mazmuni hamda ularni hisobga olish yo‘llari.

## **TURIZM: NAZARIYA VA AMALIYOT**

### **fani bo‘yicha:**

«Turizm: nazariya va amaliyot» faniga kirish. Xorijiy turizm bozorini rivojlantirish tendensiyalari. Sayohatchi va turist haqidagi tushunchalarning mohiyati. Turizm sohasining tasniflanishi va turlari. Turizm sohasining resurslari. Turizm sohasini rivojlantirishda O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarning ahamiyati. Turizm sohasidagi xizmatlar va mahsulotlar. Turizm sohasida joylashtirish xizmatlari. Turizm sohasida ovqatlantirish xizmatlari. Turizm sohasida transport xizmatlari. Gid-ekskursiya xizmatlarini amalga oshirish jarayonlari. Turizm turlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Turizm industriyasi va infratuzilmasi. Ekologik turizmni rivojlantirishning zamонави tendensiyalari. Gastronomiya turizmini rivojlantirish istiqbollarli. Xorijda qishloq turizmini rivojlantirish tajribasi. Turizm sohasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi va marketingi. O‘zbekistonda xalqaro turizm tashkilotlarning o‘rni. Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish yo‘nalishlari. O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish istiqbollarli. Turizm xizmatlarini litsenziyalashtirish, sertifikatlashtirish va standartlashtirish. Turizm sohasida xalqaro huquqiy va me’yoriy xujjalilar.

## **IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT FANI BO‘YICHA** **fani bo‘yicha:**

Iqtisodiy tahlilning rivojlanish tarixi va fan sifatida shakllanishi. Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni. Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar. Iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish. Korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish usullari. Korxonalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish usullari. Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari. Auditorlik tekshiruvining turlari va shakllari. Auditorlik tekshirishni rejalashtirish. Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi.

## **BUXGALTERIYA HISOBI FANI BO‘YICHA** **fani bo‘yicha:**

Buxgalteriya hisobi fanining predmeti va usullari. Buxgalteriya balansi, schyotlar tizimi va ikki yoqlama yozuv. Pul mablag‘lari va hisob-kitoblar hisobi. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va materiallar hisobi. Mehnat va unga haq to‘lash hisobi. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi hisobi. Tayyor mahsulot va uning sotilishini, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisobga olish. Kapital fondlar va moliyaviy natijalar hisobi. Hisobotlarni tuzish va taqdim etish.

## **MOLIYA VA SOLIQLAR FANI BO‘YICHA** **fani bo‘yicha:**

Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo‘lgan ehtiyojining rivojlanishi. Tovar-pul, taqsimlash, qayta taqsimlash munosabatlari va moliya. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatları, tovar-pul munosabatlarning qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiatini va funksiyalari bilan belgilanishi. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta’rif. Moliya va moliyaviy munosabatlarning xarakterli belgilari. Moliya yordamida ifodalanadigan pul munosabatlari. Zamonaviy iqtisodiyot va davlat moliyasi. Moliya va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi. Moliya va kredit. Moliya va ish haqi. Moliya va soliq. Ularning o‘xhash va farqli jihatlari. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Ularning o‘zaro bog‘liqligi. Moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlari. Moliya tizimining ta’rifi. Moliya tizimining sohalari va bo‘g‘inlari. Davlat moliyasi va mahalliy moliya hamda xo‘jalik yurituvchi subektlar moliyasining bo‘g‘inlari. Moliya tizimining har bir sohasi va bo‘g‘iniga pul fondlari va daromadlarini shakllantirish va ulardan foydala-nishning o‘ziga xos bo‘lgan shakllari va metodlarining tegishli ekanligi. Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati. Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (obektlar) va boshqaruvchi (subektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik prinsiplari, konkret metodlari va shakllari. Moliyaviy rejalashtirish; bashoratlash (prognozlashtirish); dasturlashtirish; moliyaviy tartibga solish; moliyaviy nazorat; moliyaviy qonunlarni (qonunchilikni) qabul qilish; moliyaviy

resurslarni jalg qilish. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari. Moliya tizimini umumiy boshqarish va uni amalga oshiruvchi organlar. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash. Har qanday sotsi-al-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirish ekanligi. Uning istiqbolga yo‘nalti-rilgan qarorlarni qabul qilish bo‘yicha faoliyat deb talqin qilinishi. Moliyaviy rejalashtirishning ta’rifi. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirishning harakat etish doirasi. Uning asosiy vazifalari. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida qo‘llaniladigan asosiy metodlar. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari: strategik moliyaviy rejalashtirish; joriy moliyaviy rejalashtirish, Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, obekti, predmeti, tizimi, vazifalari, prinsiplari. Moliyaviy nazoratning predmetini ifodalovchi moliyaviy ko‘rsatkichlar. Moliyaviy nazorat moliya funksiyalarining amalga oshirilish shakli ekanligi. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati; nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazorat o‘z ichiga oluvchi tekshiruvlar. Moliyaviy nazorat tizimining bir tipliligi va uning elementlari. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar. Moliyaviy nazoratning amaliy xarakter kasb etuvchi prinsiplari: natijalilik; nazoratchilar tomonidan talab qilinadigan talablarning aniqligi va mantiqiyligi; nazorat subektlarining sotib oluvchanmasligi; tekshirish va taftish aktlarida keltirilgan ma’lumotlarning asoslanganligi va isbotlanganligi; preventivlik (moliyaviy buzilmalar ehtimolining ogohlantiriluvchanligi); moliyaviy jinoyatlar bo‘yicha shubhalanilayotgan shaxslarning aybsizlik (sudgacha) prezumpsiysi; turli nazorat organlari faoliyatlarining muvofiqlashtiruvchanligi; va b.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. A.Taniyev Innovatsion iqtisodiyot SamDU, Darslik 2020-yil
3. B. Safarov, G’.Porsayev, D.Usmanova “Raqamli iqtisodiyot asoslari” SamDU, Darslik 2020y.
4. L.D.Petrenko, B.Sh.Safarov, A.B.Taniyev, I.I.Ayubov. Moliya va soliqlar //Darslik//. -T.:«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022.– 456 b.
5. M.R.Boltabayev, I.S.Tuxlyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov. Turizm: nazariva va amaliyat. —T.: «Barkamol fayz media» nashriyoti, darslik. 2018,400 bet
6. D.Q.Usanova Buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, SamDU, 2020. -388 bet.
7. Hickerson. Business and Information Systems 3/ye. N. Y.: John Wiley & Sons, 2000.
8. Laudon K. C., Laudon J. P. Essentials of Management information systems: organization and technology. New Jersey: Prentice Hall, 2000.
9. Measuring thye Information Sociyety Report. Volume 1. – Geneva: ITU, 2017. – 156 p.
10. Measuring thye Information Sociyety Report. Volume 2: ICT country profiles. – Geneva: ITU, 2017. – 252 p.
11. Thye Global Information Technology Report 2016: Innovating in thye Digital economy / Silja Baller, Soumitra Dutta, Bruno Lanvin. – Geneva: Cornell University, INSEAD, WYeF, 2017. – 463 p.
12. Thye Global Innovation Index 2018: energizing thye World with Innovation / editors: S. Dutta, F. Curry, B. Lanvin. – Geneva: Cornell University, INSEAD, WIPO, 2018. – 430 p.
13. Ralph M. Stair, George W. Reynolds, Principles of Information Systems. A Material Approach – Ninth edition. -2010 Course Technology, Cyengage Learning.
14. Isaev G.N. Informatsionnye sistemy v ekonomike: Uchebnik dlya studentov vuzov. – M.: Omega-L, 20112. – 462 s.
15. Kovalev, M.M. sifrovaya ekonomika – shans dlya Belarusi / M.M.
16. Kovalev, G.G. Golovenchik. – Minsk: Izd. sentr BGU, 2018. – 328 s.
17. Osnovy sifrovoy ekonomiki: uchebnoe posobie / kollektiv avtorov; pod red. M.I. Stolbova, E.A. Brendelevoy. – M.: Nauchnaya biblioteka, 2018. – 238 s.

18. Strelets, I.A. Setevaya ekonomika i setevye rynki: ucheb. posobie / I.A.Strelets. – M: eksmo, 2006. – 208 s.
19. Akbarova Z. Tovar va xizmatlar bozori statistikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004. – 144 b.
20. Abulqosimov H. va bosh. Erkin iqtisodiyot tamoyillari. T.: “Akademiya”, 2005. -52 b.
21. Abdullaev Yo.A. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. - Mehnat, 1997.
22. Abdullaev Yo. Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. T.Mehnat, 1998.
23. Budko I.I.Transportnoe obslujivanie turizma : uchebnoe posobie. – M.: Izdatelskiy sentr «MarT», 2006. – 336 s.
24. Burmenko T.D. Sfera uslug: ekonomika. Uchebnoe posobie / T.D. Burmenko, N.N.Danilenko, T.A.Turenko. – M.: KNORUS, 2007. – 328 s.
25. Buxgalterskiy uchet v sfere uslug. Uchebnik. M.A.Vaxrushina, T.P.Karpova, A.M.Petrov i dr.- M.: Rid Grupp, 2011. – 576 s.
26. Byichkov V.P. Predprinimatelskaya deyatelnost na avtomobilnom transporte. – SPb.: Piter, 2004. – 448 s.
27. Volkov Yu.F. Gostinichnyi turistskiy biznes.- Roistov-na-Donu, Feniks, 2009. – 637 s.
28. Mamatkulov X.M. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug‘ati. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. – 398 B.
29. Tuxliev N., Abdullaeva T. Uslugi, texnologii i produkty v turizme.-T.: Gos. Nauch. Izd-vo “O‘bek-iston milliy ensiklopediyasi”, 2009 – 624 s.
30. Tuxliev N., Abdullaeva T. Formalnosti v sisteme v turizme Respublikи Uzbekistoan.-T.: Gos. Nauch. Izd-vo “O‘bekiston milliy ensiklopediyasi”, 2007 – 504 s.
31. Tuxliev I.S., Qudratov G‘.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik.(Lotin alifbosida) – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – 260 bet. – 16,25 b.t. (Shu nashriyotda kril alifbosida 2010 yil – 264 b.)

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA  
IXTISOSLIKLARIIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS  
FANLARDAN DA'VOGARLARNING BILIMLARINI  
BAHOLASH MEZONI**

<b>Sinov topshirish shakli</b>	Yozma
<b>Ajratilgan vaqt</b>	120 daqiqa
<b>Savollar soni</b>	5
<b>Har bir savol uchun belgilangan ball</b>	20
<b>Maksimal ball</b>	100